



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	



SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Mamurov Doniyor Eldorovich

Farg'ona davlat texnika universiteti tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy baholash usullari tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsion faoliyat korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda qo'llaniladigan integral samara, innovatsiyalar rentabelligi va investitsiya xarajatlari davri kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarning nazariy mohiyati hamda amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion loyihalarni baholashda diskontlash usulidan foydalanishning afzalliklari, vaqt omili va investitsion tavakkalchiliklarning baholash natijalariga ta'siri yoritildi. Maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning asosiy tamoyillari, jumladan, natijadorlik, tizimlilik, komplekslik, taqqoslash va uzluksiz monitoring tamoyillari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion faoliyatni baholashda bir nechta iqtisodiy ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish investitsion qarorlarning aniqligini oshirishi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashi hamda korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va raqamli analitik platformalardan foydalanish innovatsion loyihalarni baholashning ishonchliligi va aniqligini sezilarli darajada oshirishi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, sanoat korxonasi, innovatsion samaradorlik, integral samara, innovatsiyalar rentabelligi, investitsiya samaradorligi, diskontlash, qoplash muddati, innovatsion boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы и практические методы оценки эффективности инновационной деятельности промышленных предприятий. В современных условиях развития экономики инновационная деятельность рассматривается как один из ключевых факторов повышения конкурентоспособности предприятий, эффективности производства и обеспечения устойчивого экономического развития. В работе проведён анализ экономической сущности и практического значения основных показателей оценки инновационной деятельности, включая интегральный эффект, рентабельность инноваций и срок окупаемости инвестиционных затрат. Особое внимание уделено использованию метода дисконтирования при оценке инновационных проектов, влиянию временного фактора и инвестиционных рисков на конечные результаты оценки. В статье обоснованы основные принципы оценки эффективности инновационной деятельности, такие как результативность, системность, комплексность, сопоставимость и непрерывный мониторинг. Результаты исследования показывают, что комплексное применение нескольких экономических показателей позволяет повысить качество инвестиционных решений, обеспечить рациональное использование ресурсов и совершенствовать стратегию инновационного развития промышленных предприятий. Кроме того, доказано, что использование технологий искусственного интеллекта, анализа больших данных, автоматизированных систем мониторинга и цифровых аналитических платформ значительно повышает объективность и точность оценки инновационной деятельности в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: инновационная деятельность, промышленное предприятие, эффективность инноваций, интегральный эффект, рентабельность инноваций, эффективность инвестиций, дисконтирование, срок окупаемости, инновационный менеджмент, экономическая эффективность.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations as well as practical approaches to evaluating the efficiency of innovation activities in industrial enterprises. Under the conditions of a rapidly developing market economy, innovation has become one of the key drivers of competitiveness,



production efficiency, and sustainable economic growth. The study analyzes the theoretical essence and practical significance of major evaluation indicators, including integral effect, innovation profitability, and investment payback period. Particular attention is paid to the application of discounted cash flow techniques, the influence of the time value of money, and investment risks on the assessment of innovation projects. The paper also substantiates the fundamental principles of innovation performance evaluation, including effectiveness, systematic approach, comprehensiveness, comparability, and continuous monitoring. The findings indicate that the integrated use of several economic indicators significantly improves the quality of investment decision-making, ensures efficient allocation of financial resources, and contributes to the development of long-term innovation strategies in industrial enterprises. Furthermore, the study demonstrates that the application of artificial intelligence, big data analytics, automated monitoring systems, and digital analytical platforms substantially enhances the reliability and accuracy of innovation performance assessment within the framework of the digital economy.

Keywords: innovation activity, industrial enterprise, innovation efficiency, integral effect, innovation profitability, investment efficiency, discounted cash flow, payback period.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va uning natijadorligini muntazam baholab borishni talab etmoqda. Global raqobatning kuchayishi, texnologik taraqqiyot sur'atining jadallashuvi hamda iste'molchilar talabining murakkablashuvi korxonalarni innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga undamoqda. Mazkur sharoitda innovatsion faoliyat samaradorligini baholash korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim boshqaruv instrumentiga aylanmoqda.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasi innovatsion faollik, ilmiy salohiyat va boshqaruv mexanizmlarining takomillashganlik darajasi bilan belgilanadi. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, texnologik tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholash turli iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Sof joriy qiymat, investitsiya rentabelligi, innovatsion loyihaning qoplash muddati, mehnat unumdorligi va resurs tejamkorligi kabi ko'rsatkichlar innovatsion faoliyat natijadorligini aniqlashda muhim mezon hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning kompleks tahlili korxona innovatsion salohiyatining real holatini aniqlash imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullarining mazmunini o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va raqamli monitoring texnologiyalari innovatsion loyihalarni tahlil qilishning aniqligini oshirmoqda. Zamonaviy baholash mexanizmlaridan foydalanish korxonalarning strategik rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim rol o'ynamoqda.

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirish tartibi qayta qurish bosqichida bo'lgani uchun innovatsion loyihalarni boshqarish, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qarorlarni qabul qilishni metodik ta'minlashdagi kamchilik hisoblanadi.

Innovatsiyalar samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy tamoyili undan olingan samara (natija) va xarajatlarni solishtirish hisoblanadi. Shunga ko'ra, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi integral samara, innovatsiyalar rentabelligi, xarajatlarni qoplash, yangiliklarni o'zlashtirishga xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida takomillashtirildi.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash masalalari iqtisodiyot fanida ko'plab xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, J.A. Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida e'tirof etib, korxonalarning raqobatbardoshligi innovatsion faoliyat natijadorligiga bevosita bog'liqligini ilmiy asoslab bergan¹. J. Tidd, J. Bessant va K. Pavitt innovatsion menejment konsepsiyasini rivojlantirib, innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish va ularning natijadorligini baholashda iqtisodiy, tashkiliy hamda strategik omillarni kompleks tahlil qilish zarurligini ta'kidlaganlar². P. Drucker innovatsiyani

¹ Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press. pp. 65–74.

² Tidd, J., Bessant, J., & Pavitt, K. (2021). Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change (7th ed.). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons. pp. 112–138.



korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas elementi sifatida baholab, innovatsion faoliyat samaradorligini muntazam monitoring qilish va natijalarni iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash zarurligini qayd etgan³.

MDH olimlaridan A.I. Prigojin innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqib, innovatsiyalar samaradorligini baholashda iqtisodiy va boshqaruv omillarini uyg'unlashtirish lozimligini asoslagan⁴. S.D. Ilyenkova innovatsion menejment sohasidagi ilmiy izlanishlarida innovatsion loyihalarni iqtisodiy baholash mezonlari, investitsion tavakkalchiliklar va rentabellik ko'rsatkichlarini takomillashtirish masalalarini yoritgan⁵. V.Ya. Gorfinkel esa sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanish, investitsiya samaradorligi va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratgan⁶. Mahalliy olimlardan I. Abdug'aniyev sanoat korxonalarida innovatsion usullarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan⁷. Q.X. Abdurahmonov o'z tadqiqotlarida innovatsion iqtisodiyot, inson kapitali va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritib, innovatsion rivojlanishning nazariy asoslarini takomillashtirishga hissa qo'shgan⁸. A.V. Vahobov esa investitsiyalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalar samaradorligini baholash hamda investitsion qarorlar qabul qilish metodologiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan⁹. Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini integral samara, innovatsiyalar rentabelligi va investitsiya xarajatlarini qoplash davri kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida kompleks baholashning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini innovatsion rivojlanish nazariyasi, investitsion tahlil konsepsiyasi, korporativ boshqaruv tamoyillari hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash bo'yicha zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli yordamida innovatsion faoliyat samaradorligini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Taqqoslama tahlil usuli orqali innovatsion loyihalarni baholashda qo'llaniladigan integral samara, innovatsiyalar rentabelligi hamda investitsiya xarajatlarini qoplash davri ko'rsatkichlarining afzalliklari va cheklovlari aniqlandi.

Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil usullari asosida innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar guruhlandi va ularning korxona rivojlanishiga ta'siri baholandi. Mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, sintez va induksiya-deduksiya usullari orqali innovatsion boshqaruvning nazariy asoslari umumlashtirildi. Diskontlangan pul oqimlari usuli asosida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash mexanizmi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot davomida xalqaro ilmiy adabiyotlar, innovatsion menejment va investitsion tahlil bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalarni shakllantirishda qiyosiy tahlil, ekspert baholash hamda grafik va jadval tahlili usullaridan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv innovatsion faoliyat samaradorligini kompleks baholash, investitsion qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini oshirish, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda sanoat korxonalarining uzoq muddatli innovatsion rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy samarani aniqlash muammosi va eng afzal innovatsiyalarni tanlash, bir tomondan, uni ishlab chiqish, tayyorlash va sotish xarajatlariga nisbatan natijalar oshishini, ikkinchi tomondan, ushbu holatdagi innovatsiyalar uchun boshqa imkoniyatlarni joriy etishdan kutilayotgan samara bilan xarajatlarni taqqoslashni talab etadi. Sanoat korxonalarida mavjud mashina va jihozlarni yangisiga almashtirish muddati qisqarishini ifodalovchi tezlashtirilgan amortizatsiya bilan innovatsiyalar samaradorligini baholash muammosining dolzarbligi ortadi.

3 Drucker, P. F. (1985). *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. New York, NY: Harper & Row. pp. 19–42.

4 Prigojin, A. I. (2003). *Metodы razvitiya organizatsiy*. Moskva: Delo. S. 176–189.

5 Ilyenkova, S. D. (2016). *Innovatsionnyy menedjment*. Moskva: YUNITI-DANA. S. 214–236.

6 Gorfinkel, V. Ya. (2019). *Innovatsionnyy menedjment* (5-ye izd.). Moskva: Yurayt. S. 143–168.

7 Abdug'aniyev, I. (2024). *Innovatsion usulda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish*. Nordic University e-Journal, 24–31.

8 Abdurahmonov, Q. X. (2020). *Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi*. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA. 45–63-betlar.


9 Vahobov, A. V. (2021). *Investitsiyalarni moliyalashtirish va samaradorligini baholash*. Toshkent: Iqtisodiyot. 118–139-betlar.



Xarajatlar bilan natijalarni solishtirishga asoslangan innovatsiyalar samaradorligini hisoblash usuli innovatsiyalarning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qarorlarni qabul qilishni nazarda tutadi. Odatda innovatsiyalar umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun quyidagi uchta guruh ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. Integral samara ko'rsatkichlari;
2. Innovatsiyalar rentabelligi ko'rsatkichlari;
3. Xarajatlarni qoplash davri ko'rsatkichlari¹⁰.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda qo'llaniladigan muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri integral samara ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur usul innovatsion loyihaning ma'lum vaqt oralig'idagi umumiy iqtisodiy natijasini aniqlash imkonini beradi. Integral samara innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlar hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlar o'rtasidagi farqni diskontlash asosida hisoblashga tayanadi. Ushbu ko'rsatkich investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholashda keng qo'llaniladi (1-rasm).



1-rasm. Integral samara ko'rsatkichining asosiy tarkibiy qismlari¹¹

Integral samara ko'rsatkichi innovatsion loyihaning kelajakdagi moliyaviy oqimlarini joriy qiymatga keltirish orqali aniqlanadi. Innovatsion loyihalar odatda uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgani sababli vaqt omili muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Turli davrlarda olinadigan daromad va xarajatlar qiymati bir xil bo'lmaydi. Shu sababli diskontlash usuli yordamida kelajakdagi pul oqimlari bugungi qiymatga moslashtiriladi.

Bunday mezon asosidagi hisob-kitob quyidagi tarzda ifodalanadi:

$$E = \sum_{L=0}^T (N_t - X_t) * a_t$$

Bu yerda:

T – hisobot yili;

N_t – tanlab olingan yildagi natija;

X_t – tanlab olingan yildagi innovatsiyalarga qilingan xarajatlar;

a_t – diskontlash koeffitsiyenti.

¹⁰ Abdug'aniyev, I. (2024). Innovatsion usulda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish. Nordic University e-Journal, 24–31.

¹¹ Muallif ishlanmasi



Mazkur usulning iqtisodiy mohiyati innovatsion loyihaning butun faoliyat davridagi sof iqtisodiy foydasini aniqlashdan iboratdir. Agar integral samara musbat qiymatga ega bo'lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan samarali deb baholanadi. Manfiy qiymat esa loyiha xarajatlari kutilayotgan natijalardan yuqori ekanligini anglatadi.

Integral samara usuli sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni tanlashda muhim boshqaruv vositasi vazifasini bajaradi. Korxonalar ushbu ko'rsatkich orqali bir nechta innovatsion loyihalarni o'zaro taqqoslash hamda eng yuqori iqtisodiy natija beruvchi variantni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur yondashuv investitsion resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Diskontlash mexanizmidan foydalanish innovatsion faoliyatni baholashning aniqligini oshiradi. Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati o'zgarishini hisobga olish investitsion qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini kuchaytiradi. Inflyatsiya darajasi, kapital qiymati va tavakkalchilik omillari diskont stavkasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sanoat korxonalarida integral samara ko'rsatkichidan foydalanish innovatsion faoliyat samaradorligini strategik jihatdan baholash imkonini yaratadi. Ushbu usul korxoning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish istiqbollari aniqlash, innovatsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini baholash hamda investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi.

Innovatsiyalar rentabelligi innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda qo'llaniladigan muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich innovatsion loyiha yoki innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardan evaziga qancha daromad olinayotganligini ifodalaydi. Innovatsiyalar rentabelligi korxonalar tomonidan innovatsion faoliyatga sarflangan investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligini aniqlash imkonini beradi. Bu orqali innovatsion boshqaruv tizimida investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim iqtisodiy instrument sifatida qo'llaniladi.

Innovatsiyalar rentabelligining shakllanishi klassik iqtisodiy nazariyalarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. XVIII–XIX asrlarda iqtisodchi olimlar kapital samaradorligi va foyda me'yori ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari sifatida o'rgana boshlaganlar. Keyinchalik XX asrda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi innovatsion faoliyatning iqtisodiy natijadorligini alohida baholash zarurati yuzaga keltirdi. Mazkur davrda innovatsion investitsiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan rentabellik ko'rsatkichlari keng qo'llanila boshladi.

Avstriyalik iqtisodchi Joseph Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida talqin qilgan. Olim innovatsion faoliyat korxonalarga qo'shimcha foyda va ustunlik olib kelishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Schumpeter nazariyasida innovatsion faoliyatdan olinadigan iqtisodiy foyda "innovatsion renta" tushunchasi bilan ifodalanadi. Mazkur yondashuv innovatsiyalar rentabelligi nazariyasining shakllanishiga muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Innovatsiyalar rentabelligi korxoning innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlari va olingan daromdlari o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich innovatsion loyiha qanchalik iqtisodiy samarali ekanligini aniqlash imkonini beradi. Agar rentabellik darajasi yuqori bo'lsa, innovatsion loyiha korxona uchun foydali hisoblanadi. Past rentabellik esa innovatsion faoliyatni qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi. Bu ko'rsatkich quyidagi formula orqali aniqlanadi (1-jadval):

$$R_i = \sum (D_t * a_t) / \sum (K_t * a_t)$$

1-jadval

Rentabellik koeffitsiyentining asosiy ko'rsatkichlari va innovatsion faoliyatdagi ularning ahamiyati¹²

№	Formula elementlari	Iqtisodiy mazmuni	Innovatsion faoliyatdagi ahamiyati	Korxona faoliyatiga ta'siri
1	R _i – innovatsiyalar rentabelligi	Innovatsion loyihaning umumiy foydalilik darajasini ifodalaydi	Innovatsion loyiha iqtisodiy samaradorligini baholaydi	Investitsion jozibadorlik ortadi
2	D _t – t davrdagi daromad	Innovatsion faoliyat natijasida olingan sof daromad	Moliyaviy natijadorlikni ko'rsatadi	Korxona foydasi oshadi
3	K _t – t davrdagi investitsiyalar	Innovatsion loyihaga yo'naltirilgan xarajatlardan	Investitsion yuklamani aniqlaydi	Resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi
4	a _t – diskontlash koeffitsiyenti	Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymatini ifodalaydi	Kelajakdagi pul oqimlarini joriy qiymatga keltiradi	Investitsion qarorlar aniqligi kuchayadi

12 Muallif ishlanmasi.



5	T – hisobot davri	Innovatsion loyiha davomiyligi	Samaradorlikni vaqt bo'yicha baholaydi	Strategik rejalashtirish yaxshilanadi
6	Diskontlangan daromadlar yig'indisi	Kelgusidagi barcha daromadlarning joriy qiymati	Loyihaning iqtisodiy salohiyatini baholaydi	Moliyaviy barqarorlik oshadi
7	Diskontlangan xarajatlarning yig'indisi	Innovatsion loyiha xarajatlarning joriy qiymati	Xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligini ko'rsatadi	Moliyaviy tavakkalchilik kamayadi
8	$R_i > 1$	Innovatsion loyiha foydali ekanligini bildiradi	Loyihani joriy etish maqsadga muvofiq	Iqtisodiy samaradorlik oshadi
9	$R_i < 1$	Xarajatlarning daromaddan yuqori ekanligini bildiradi	Loyiha qayta ko'rib chiqiladi	Moliyaviy yo'qotish xavfi ortadi
10	Strategik ahamiyati	Innovatsion rivojlanish istiqbollarini belgilaydi	Innovatsion boshqaruvni takomillashtiradi	Raqobatbardoshlik kuchayadi

Mazkur formulada diskontlash usulidan foydalanilishi innovatsion loyihalarni baholash aniqligini oshiradi. Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati o'zgarishi hisobga olinadi. Kelajakdagi daromadlarning joriy qiymatga keltirilishi investitsion qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini kuchaytiradi.

Innovatsiyalar rentabelligi ko'rsatkichi sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni tanlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Korxonalar bir nechta innovatsion loyihalarni taqqoslash orqali eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega variantni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur usul investitsion resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda korxonaning uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy tahlillar innovatsiyalar rentabelligi yuqori bo'lgan korxonalar bozordagi o'zgarishlarga tez moslashishini ko'rsatmoqda. Innovatsion rentabellik darajasi korxonaning investitsion jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi va innovatsion salohiyatini ifodalovchi muhim iqtisodiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Shu bois sanoat korxonalarida innovatsiyalar rentabelligini muntazam baholab borish innovatsion boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarajatlarni qoplash davri (T) innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning klassik iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich innovatsion loyihaga yo'naltirilgan investitsiyalarning qancha vaqt davomida o'zini qoplashi mumkinligini aniqlashga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat yuqori tavakkalchilik va katta hajmdagi kapital qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgani sababli investitsiyalarning qaytish muddati korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim iqtisodiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida qoplash muddati ko'rsatkichidan foydalanish investitsion qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini kuchaytiradi.

"Iqtisodiy nazariyada xarajatlarni qoplash davri investitsion tahlilning dastlabki va eng sodda usullaridan biri sifatida shakllangan. Mazkur yondashuv XX asrning birinchi yarmida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va kapital qo'yilmalar hajmining ortishi bilan keng qo'llanila boshlagan. Keyinchalik ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi innovatsion loyihalarning murakkablashuviga olib keldi hamda investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini aniq baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Shu asosda diskontlash usuli bilan boyitilgan qoplash muddati konsepsiyasi iqtisodiy tahlil tizimiga kirib keldi.

Innovatsion faoliyatni baholashda xarajatlarni qoplash davrining iqtisodiy mohiyati investitsiya xarajatlari va innovatsion faoliyatdan olinadigan pul oqimlari o'rtasidagi nisbatni aniqlashdan iboratdir. Korxona innovatsion loyihaga yo'naltirgan moliyaviy resurslarini qanchalik tez qaytarib olsa, loyiha iqtisodiy jihatdan shunchalik samarali hisoblanadi. Mazkur holat investitsion risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda innovatsion faoliyatning uzluksizligini ta'minlash imkonini yaratadi va bu quyidagi formula orqali topiladi¹³:

$$T = \frac{K}{D}$$

Bu yerda:

T – xarajatlarni qoplash davri;

K – innovatsion loyihaga qilingan dastlabki investitsiyalar hajmi;

D – o'rta yillik diskontlangan pul daromadlari.

13 Abdug'aniyev, I. (2024). Innovatsion usulda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish. Nordic University e-Journal, 24–31.



Mazkur formula innovatsion loyihaga sarflangan investitsiyalarni loyiha orqali olinadigan o'rtacha yillik daromadlar hajmiga nisbatlash asosida hisoblanadi. Agar loyiha bo'yicha pul oqimlari barqaror bo'lsa, qoplash muddati aniq iqtisodiy baholash imkonini beradi. Innovatsion faoliyatda pul oqimlarining vaqt bo'yicha qiymati o'zgaruvchan bo'lganligi sababli diskontlash usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diskontlangan qoplash muddati investitsion tahlilning an'anaviy qoplash usuliga nisbatan ancha takomillashgan shakli hisoblanadi. Mazkur yondashuvda kelajakda olinadigan pul oqimlari joriy qiymatga keltiriladi. Inflyatsiya darajasi, kapital qiymati, foiz stavkalari va investitsion tavakkalchilik omillari diskontlashning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan diskontlangan qoplash muddati innovatsion loyihaning real iqtisodiy samaradorligini aniqroq ifodalab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash sanoat korxonalarining barqarorligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimida innovatsion loyihalarning iqtisodiy natijadorligini aniqlash va tahlil qilish orqali investitsion resurslardan oqilona foydalanish hamda korxonalarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda integral samara, innovatsiyalar rentabelligi va xarajatlarni qoplash davri ko'rsatkichlarini o'zaro uzviy bog'liq holda tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Integral samara innovatsion loyihaning umumiy iqtisodiy natijadorligini aniqlash imkonini bersa, innovatsiyalar rentabelligi foydalilik darajasini baholaydi. Xarajatlarni qoplash davri esa investitsiyalarning qaytish muddatini aniqlash orqali moliyaviy tavakkalchilik darajasini baholashga xizmat qiladi. Mazkur ko'rsatkichlarning kompleks qo'llanilishi sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning samaradorligini oshirish, investitsion resurslardan oqilona foydalanish hamda korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Natijadorlik tamoyili innovatsion faoliyatdan olingan samaraning sarflangan resurslarga nisbatan baholanishini anglatadi. Ushbu tamoyil asosida korxonaning innovatsion loyihalardan olgan iqtisodiy samarasi, rentabellik darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi hamda mehnat unumdorligidagi o'zgarishlar aniqlanadi. Natijadorlik innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi bo'lib, korxona raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Taqqoslash tamoyili ham innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda muhim o'rin tutadi. Mazkur tamoyil asosida korxonaning joriy ko'rsatkichlari avvalgi davr natijalari yoki boshqa korxonalar faoliyati bilan solishtiriladi. Bu esa innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash hamda mavjud muammolarni belgilash imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda monitoring va uzluksizlik tamoyili ham alohida ahamiyatga ega. Innovatsion loyihalarning amalga oshirilish jarayonini doimiy ravishda kuzatib borish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash hamda zarur hollarda tuzatishlar kiritish korxona faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu maqsadda raqamlashtirilgan monitoring tizimlaridan foydalanish innovatsion boshqaruv samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press. pp. 65–74.
2. Tidd, J., Bessant, J., & Pavitt, K. (2021). Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change (7th ed.). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons. pp. 112–138.
3. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York, NY: Harper & Row. pp. 19–42.
4. Пригожин, А. И. (2003). Методы развития организаций. Москва: Дело. С. 176–189.
5. Ильенкова, С. Д. (2016). Инновационный менеджмент. Москва: ЮНИТИ-ДАНА. С. 214–236.
6. Горфинкель, В. Я. (2019). Инновационный менеджмент (5-е изд.). Москва: Юрайт. С. 143–168.
7. Abdug'aniyev, I. (2024). Innovatsion usulda sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish. Nordic University e-Journal, 24–31.
8. Abdurahmonov, Q. X. (2020). Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA. 45–63-betlar.
9. Vahobov, A. V. (2021). Investitsiyalarni moliyalashtirish va samaradorligini baholash. Toshkent: Iqtisodiyot. 118–139-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>